

AHMAD A'ZAMNING "SOYASINI YO'QOTGAN ODAM" HIKOYASINING ASOSIY MAVZU KO'LAMI VA BADIY-FALSAFIY QATLAMLAR

Mehriniso Shomurodova

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand**davlat universiteti Filologiya fakulteti II kurs magistranti*

Annotatsiya Mazkur maqolada Ahmad A'zam nasrining badiiy-estetik xususiyatlari, xususan, uning hikoya va novellalaridagi ramziy qatlam, ichki monolog uslubi hamda kinoyaviy ifoda tamoyillari tahlil qilinadi. Adib ijodida shaxsning o'z "men"ini anglash jarayoni, inson va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar, ichki ruhiy ziddiyatlar yetakchi g'oya sifatida namoyon bo'lishi asoslab beriladi. Shuningdek, Nazar Eshonqul hamda boshqa tadqiqotchilar qarashlari kontekstida Ahmad A'zam asarlaridagi psixologizm, introspektiv tasvir va kinoyaning badiiy funksiyasi yoritiladi. Tadqiqot natijasida yozuvchi nasrida konfliktning tashqi voqelikdan ko'ra ichki ong maydonida kechishi, "men" fenomenining markaziy poetik unsur sifatida shakllanishi aniqlanadi. Maqola Ahmad A'zam ijodining zamonaviy o'zbek nasrida tutgan o'rni va estetik ahamiyatini ilmiy asosda umumlashtirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Ahmad A'zam, zamonaviy o'zbek nasri, ichki monolog, psixologizm, kinoya, ramziylik, "men" fenomeni, badiiy konflikt, introspektiv tasvir.

Abstract This article examines the artistic and aesthetic features of Ahmad A'zam's prose, focusing on symbolic layers, internal monologue techniques, and ironic expression in his short stories and novellas. The study highlights the writer's exploration of self-awareness, the complex relationship between the individual and society, and the depiction of inner psychological conflicts as dominant thematic elements. Drawing on the critical perspectives of Nazar Eshonqul and other scholars, the paper analyzes the functions of psychologism, introspective narration, and irony in A'zam's works. The research concludes that the primary conflict in his prose unfolds within the sphere of individual consciousness rather than external reality, with the "self" functioning as a central poetic phenomenon. The article aims to provide a scholarly synthesis of Ahmad A'zam's contribution to contemporary Uzbek prose and its aesthetic significance.

Keywords: Ahmad A'zam, contemporary Uzbek prose, internal monologue, psychologism, irony, symbolism, self-phenomenon, artistic conflict, introspective narrative.

Adib, adabiyotshunos va tarjimon sifatida tanilgan Ahmad A'zam o'tgan asrning 70-yillarida adabiy jarayonga kirib kelgan avlod vakillaridan sanaladi. U nasr, tanqid va tarjima sohalarida samarali ijod qilgan ko'p qirrali ijodkordir. Yozuvchining hikoya va qissa janrlaridagi asarlari o'zining badiiy-estetik salmog'i, ruhiy-psixologik chuqurligi hamda jamiyat muammolarini teran aks ettirishi bilan kitobxonlar e'tiborini qozongan. Ahmad A'zamning "Soyasini yo'qotgan odam", "Oyning gardishi", "Ming o'limdan qolib", "Odamning olasi" kabi hikoyalari, "Gul ko'tarib ketayotgan erkak", "Bir kam dunyo", "O'zim bilan o'zim" novellalari, "Hali hayot bor...", "Bu kunning davomi", "Asqartog' tomonlarda" qissalari

hamda “O‘zi uylanmagan sovchi”, “Ro‘yo yoxud G‘ulistonga safar” romanlari zamonaviy o‘zbek nasrida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Mazkur asarlarda insonning ichki dunyosi, o‘zligini anglash jarayoni, ijtimoiy muhit bilan shaxs o‘rtasidagi murakkab munosabatlar yetakchi mavzu sifatida namoyon bo‘ladi. Ahmad A‘zam jamiyatdagi ma‘naviy-axloqiy muammolarni ochiq publitsistik ohangda emas, balki badiiy kinoya vositasida yoritadi. “Odamning olasi”, “Kichik ilmiy xodim Hamdamov”, “Almisoqdan qolgan Karim”, “Noinsof Muso” kabi hikoyalarda qahramonlar kinoyaviy rakursda tasvirlanadi. Bu asarlarda muallif personajning fe‘l-atvori, dunyoqarashi va ijtimoiy mavqeini ma‘lum darajada kulgi hamda istehzo orqali ochib beradi. Natijada kinoya nafaqat uslubiy vosita, balki g‘oyaviy pozitsiyani ifodalovchi asosiy badiiy mexanizmga aylanadi. Adib ijodiga oid turli ilmiy maqolalar e‘lon qilingan bo‘lsa-da, uning nasriy merosi hali to‘liq monografik ko‘lamda tadqiq etilgan emas. Tadqiqotchilar asosan muayyan asar yoki alohida poetik jihatlar yuzasidan kuzatishlar olib borganlar. Jumladan, M. Sheraliyeva “Ahmad A‘zam hikoyalarda kinoya” nomli maqolasida yozuvchining “Odamning olasi”, “Noinsof Muso”, “Oyning gardishi”, “Kichik ilmiy xodim Hamdamov” hikoyalarda kinoyaning badiiy ifoda shakllarini tahlil qiladi. Tadqiqotchi ushbu hikoyalarni voqelikka va qahramonga munosabat, shuningdek, syujet-kompozitsion qurilishi jihatidan latifanamo tipdagi asarlar sifatida baholaydi hamda ularning bir davr mahsuli ekanini ta‘kidlaydi.[3]

Haqiqatan ham, Ahmad A‘zam ijodida kinoya yuqori estetik darajada namoyon bo‘ladi. Yozuvchi ijtimoiy adolatsizlik, ma‘naviy tanazzul, rasmiyatchilik yoki ikkiyuzlamachilik kabi illatlarni qahramon xarakteri orqali ochib beradi. Bunda kinoya keskin hajv darajasiga chiqmaydi, balki badiiy muvozanat saqlangan holda ifodalanadi. Muallif voqelikka munosabatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri hukm tarzida emas, balki obrazlar harakati, nutqi va ichki monologlari orqali bildiradi. Shu tariqa kinoya asarning g‘oyaviy-estetik yaxlitligini ta‘minlovchi vositaga aylanadi. Ahmad A‘zam ijodi zamonaviy o‘zbek nasrida inson ruhiyatini chuqur tahlil qilishi, ijtimoiy muammolarni kinoyaviy talqin etishi hamda badiiy shakl izlanishlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari shaxs va jamiyat munosabatlarini teran mushohada qilishga undovchi, ko‘p qatlamli semantik tuzilishga ega badiiy namunalar sifatida e‘tirof etiladi. "Bunday yaratishlar adabiyotni yangilabgina qolmay, kitobxonlar didining o‘rishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi bilan ham ahamiyatlidir. Ahmad A‘zam asarlarining ichki mexanizmi qandayligini, ularning badiiyatini ta‘minlagan omillar nimalardan iboratligini aniqlashga urinish o‘qirmanga hayotning ko‘zga tashlanavermaydigan mayda hodisalari zaminidagi ulkan ma‘nolarni anglash imkonini beradi." [4]

Nazar Eshonqul ta‘riflagan “men” fenomeni yozuvchining estetik pozitsiyasini ham anglatadi. Ahmad A‘zam qahramonini mutlaq oqlamaydi ham, to‘liq qoralamaydi ham; aksincha, uni o‘z ichki ziddiyatlari bilan yuzlashtiradi. Shu jihatdan asarlar axloqiy hukm chiqarishga emas, balki o‘zini anglash jarayonini ko‘rsatishga qaratilgan. “Men” obrazi bir vaqtning o‘zida ham aybdor, ham jabrdiyya, ham kuzatuvchi, ham sudyadir. Bu murakkablik esa asarlarning falsafiy teranligini ta‘minlaydi. Nazar Eshonqulning mazkur maqoladagi kuzatishlari Ahmad A‘zam nasrining ichki monologga tayangan, psixologik tahlilga asoslangan poetikasini aniqlashda muhim nazariy xulosalarni beradi. Uning ta‘rificha, yozuvchi yaratgan badiiy olam — bu avvalo o‘z qalbi bilan muloqotga kirishgan inson olamidir. Shu bois Ahmad

A'zam asarlarida tashqi harakatdan ko'ra ichki kechinma, voqeadan ko'ra tafakkur jarayoni ustuvorlik kasb etadi.[1]

“Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasining asosiy mavzu ko‘lami va badiiy-falsafiy qatlamlar

Ahmad A'zam ijodida zamonaviy o‘zbek nasrining ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishi alohida o‘rin tutadi. “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasi ana shu yo‘nalishning yorqin namunasi bo‘lib, unda real hayotiy makon va absurd hodisa uyg‘unligi orqali shaxs va jamiyat munosabati, mafkuraviy bosim, individuallik muammosi hamda muhabbatning ontologik mohiyati yoritiladi. Asarning asosiy mavzu ko‘lami ko‘p qatlamli bo‘lib, u ijtimoiy-siyosiy, psixologik, falsafiy va ramziy talqin doirasida tahlilni talab etadi.

Hikoyaning markaziy motivi – qahramonning soyasini yo‘qotishi – tashqi tomondan biologik-fizik hodisa sifatida tasvirlansa-da, mohiyatan ijtimoiy-falsafiy ramz vazifasini bajaradi. Soya bu yerda insonning jamiyatdagi “normativ” o‘rni, umumiy qolipga mosligi, ideologik tizimga integratsiyalashganligini bildiradi. Qahramonning soyasiz qolishi esa uning jamiyat uchun “boshqacha”, “me‘yoriy tizimdan tashqaridagi” subyektga aylanishini anglatadi. Asarda ishxona jamoasining munosabati alohida e‘tiborga molik. Qahramonning shaxsiy muammosi darhol kollektiv muhokamasiga chiqariladi, komissiya tuziladi, yuqori tashkilotlarning ehtimoliy reaksiyasi hisobga olinadi. Bu jarayon totalitar tafakkur modelini eslatadi: har qanday noodatiy holat individual hodisa emas, balki tizimga tahdid sifatida qabul qilinadi. Mazkur jihat hikoyaning ijtimoiy-siyosiy qatlamini belgilaydi. Muallif bevosita siyosiy bayonot bermaydi, biroq byurokratik apparatning mantiqsiz faoliyati orqali mafkuraviy tizimning ichki absurdligini ochadi.

Absurd va realizm sintezi: badiiy metod masalasi

Asar poetikasida realizm va absurd unsurlari sintez holida namoyon bo‘ladi. Voqealar real makonda – ishxona, ko‘cha, choyxona, turar joy kabi kundalik muhitda kechadi. Qahramon ham oddiy inson: kitob o‘qiydigan, ishlaydigan, sevgan qizi bor yigit. Biroq aynan shu real muhitda fiziologik jihatdan imkonsiz hodisa – soyasizlik – ro‘y beradi va jamiyat tomonidan tabiiy qabul qilinadi. Absurd elementning kuchi shundaki, hech kim voqeaning fizik imkonsizligiga jiddiy ilmiy izoh izlamaydi; aksincha, masala ideologik va ma‘muriy yo‘sinda hal etilishga uriniladi. Komissiya tuzilishi, mehnat intizomini kuchaytirish, “g‘oyaviy og‘ish”ni tekshirish kabi choralar hodisaning mohiyatini emas, balki uning tashqi oqibatlarini nazorat qilishga qaratilgan. Bu esa absurd vaziyatni yanada chuqurlashtiradi. Demak, hikoyada absurd – voqelikni inkor etish emas, balki mavjud ijtimoiy mantiqni ochib berish vositasidir.

Intellektual shaxs va “g‘oyaviy og‘ish” muammosi

Qahramonning ko‘p kitob o‘qishi, xususan, chet el adabiyotiga qiziqishi hamkasblar tomonidan shubha bilan qaraladi. Bu epizod asarning intellektual qatlamini ochadi. Mustaqil fikrlovchi, tafakkur qiluvchi shaxs doimo tizim uchun xavfli subyekt sifatida ko‘rilishi mumkinligi ko‘rsatiladi. Qahramonning soyasizligi uning ichki erkinligi, tafakkur mustaqilligi bilan bog‘liq ramziy talqinlarga ham imkon yaratadi. Shu nuqtai nazardan, “soya” tushunchasi psixologik ma’noga ham ega: u insonning tashqi ijtimoiy qiyofasi, jamiyat talablariga moslashgan “ikkinchi men”i sifatida talqin qilinishi mumkin. Qahramon soyasiz qolgach, go‘yoki ijtimoiy niqobdan mahrum bo‘ladi. Jamiyat esa niqobsiz insonni qabul qilishga tayyor emas. Hikoyaning yakuni asarning asosiy mavzu ko‘lamini kengaytiradi. Mashhuraning

qahramonni rad etmasligi, aksincha, “Sizniki bo‘lmasa, meniki bor-ku” deya qo‘ltig‘idan ushlashi muhabbatni ontologik birlik sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bu yerda muallif shaxsning butunligi ijtimoiy tasdiq orqali emas, balki yaqin inson bilan ruhiy uyg‘unlik orqali ta‘minlanishini ko‘rsatadi. Muhabbat asarda ijtimoiy absurdga qarshi qo‘yilgan insoniy qadriyatdir. Jamiyat qahramonni “nuqsanli” deb baholasa-da, sevgi uni to‘laqonli inson sifatida qabul qiladi. Shunday qilib, hikoyaning gumanistik yo‘nalishi yaqqol namoyon bo‘ladi: insonning qadr-qimmatini uning tashqi “soyasi”da emas, balki ichki mohiyatidadir.

Mavzu ko‘lamining umumlashgan xususiyati

Asarning asosiy mavzu ko‘lami quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

1. Shaxs va totalitar jamiyat o‘rtasidagi ziddiyat.
2. Mafkuraviy tizimning absurd tabiati.
3. Intellektual erkinlik va shubha munosabati.
4. Individuallik va ijtimoiy qolip muammosi.

Demak, hikoya faqat bitta noodatiy hodisa tasviri emas, balki butun bir davr tafakkuri va ijtimoiy muhitining badiiy modeli sifatida namoyon bo‘ladi. “Soya” motivi orqali muallif insonning jamiyatdagi ontologik maqomi, uning erkinligi va qadri masalasini ko‘taradi. “Soyasini yo‘qotgan odam” hikoyasi o‘zbek nasrida ramziy-falsafiy tafakkurning yetuk namunasi sifatida baholanishi mumkin. Asarda soyasizlik motivi orqali shaxsning individualligi, jamiyatning ideologik bosimi va insoniy qadriyatlarning ustuvorligi masalalari kompleks tarzda yoritilgan. Hikoyaning asosiy mavzu ko‘lami ijtimoiy-siyosiy satira bilan cheklanmay, psixologik va ontologik talqinni ham o‘z ichiga oladi. Natijada asar zamonaviy o‘zbek adabiyotida shaxs erkinligi va insoniylik g‘oyasini badiiy-falsafiy asosda ifodalagan muhim matnlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Hikoyaning ramziy va ma‘naviy qatlamlarini tahlil etish badiiy matnni yuzaki voqelik doirasidan chiqarib, uning ichki semantik strukturasi ochishga xizmat qiladi. Zero, har qanday puxta qurilgan hikoya faqat voqealar izchilligidan iborat emas; u o‘zida muallifning estetik idealini, davr ruhini, insoniy qadriyatlar haqidagi konseptual qarashlarini mujassam etadi. Shu ma‘noda, mazkur hikoya ham ko‘p qatlamli semantik tizimga ega bo‘lib, unda ramz va ma‘no o‘zaro uyg‘unlashgan holda badiiy butunlikni yuzaga keltiradi. Avvalo, hikoyaning ramziy qatlamini ochishda asosiy obrazlar tizimiga e‘tibor qaratish lozim. Asardagi markaziy qahramon nafaqat individual xarakter, balki muayyan ijtimoiy-ruhiy holatning timsoli sifatida talqin qilinadi. U shaxs sifatida konkret voqelikda harakat qilsa-da, uning ichki kechinmalari umumlashma xarakter kasb etadi. Bunday umumlashma esa obrazni ramziy darajaga ko‘taradi. Qahramonning ruhiy iztiroblari, ikkilanishlari yoki umid-umidsizlik orasidagi holati inson tabiatining ziddiyatli mohiyatini ifodalovchi ramzga aylanadi. Demak, personaj obrazi individualdan tipik va tipikdan ramziy darajaga ko‘tarilgan. Hikoyada makon va zamon tasviri ham ramziy ma‘no yukiga ega. Tasvirlangan muhit ko‘pincha tor, yopiq yoki muayyan chegaralangan shaklda beriladi. Bu esa qahramonning ichki erksizlik holatini, ruhiy siqilishini yoki ijtimoiy cheklanganligini ifodalaydi. Aksincha, ochiq makon, kenglik, tabiat manzaralari umid, ozodlik va ma‘naviy yuksalish timsoli sifatida talqin etiladi. Badiiy makonning ana shunday kontrast asosida qurilishi hikoyaning ichki drammatizmini kuchaytiradi hamda ramziy qatlamni boyitadi. Predmet va detallar tizimi ham asarning ma‘naviy yukini oshiradi. Masalan, muayyan buyum, rang yoki tabiiy unsur takroriy ravishda qo‘llanib, leitmotiv darajasiga

ko'tariladi. Bu elementlar syujetning oddiy tarkibiy qismi emas, balki muallifning estetik niyatini ifodalovchi ramz vazifasini bajaradi. Ranglar psixologik holatni bildirsa, ma'lum predmet qahramonning o'tmishi, armoni yoki yo'qotilgan qadriyatlari bilan bog'lanadi. Shu tariqa detal poetikasi hikoyaning semantik chuqurligini ta'minlaydi.

Shuningdek, hikoyada qarama-qarshilik (antiteza) usuli muhim badiiy tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Yorug'lik va zulmat, sukut va so'z, harakat va turg'unlik kabi oppozitsiyalar ramziy ma'noga ega bo'lib, inson ruhiyatidagi ziddiyatlarni aks ettiradi. Bu oppozitsiyalar orqali muallif borliqning dialektik mohiyatini ochadi: hayot bir yoqlama emas, balki qarama-qarshi kuchlar kurashi natijasida shakllanadi. Hikoyaning yakuni ham ramziy talqinga ochiq. Ochik yoki shartli tugallangan final o'quvchini fikrlashga undaydi. Muallif aniq yechim bermasdan, ma'noni ko'p variantli talqin imkoniyatida qoldiradi. Bu esa zamonaviy nasr poetikasiga xos ochiqlik tamoyilini namoyon etadi. Natijada hikoya o'z chegarasidan chiqib, o'quvchi tafakkurida davom etadi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur hikoya ramziy va ma'naviy qatlamlarning uyg'unligi bilan ajralib turadi. "Shunday asarlar bo'ladiki, yillar o'tgan sayin qadri oshib boraveradi. Yillar o'tgan sayin o'zing uchun ulardan kuch-quvvat, zavq-shavq olaverasan. Asar qahramonlari bilan uzoq yillar hamdard bo'lib yashaysan". [2] Yozuvchi Ahmad A'zamning ushbu hikoyasi ham xuddi shunday asarlardan biri sifatida inson ko'nglining eng nozik o'y-kechinmalari, inson ruhiy olamining turli murakkab qirralarini yoritilganligi bilan ajralib turadi. Obrazlar tizimi, makon-zamon tasviri, detal poetikasi hamda kompozitsion qurilish asarning ichki semantikasini boyitadi. Ramzlar orqali ifodalangan g'oya insonning ma'naviy izlanishlari, ichki ziddiyatlari va axloqiy tanlovi masalalarini yoritadi. Shu bois hikoya nafaqat voqelik tasviri, balki inson ruhiyatining badiiy-falsafiy tadqiqi sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Eshonqul N. Mendan "men" gacha. - T.: Akademnashr, 2014. - B. 447.
2. Mannopov R. Asqartog' cho'qqisiga yo'l. - T.: Yoshlik, 2010-yil, 9-son.
3. Sheraliyeva M. Ahmad A'zam hikoyalarida kinoya.
4. Yo'ldosh Q. So'z yolqini. - T.: G'.G'ulom NMIU, 2018. - B. 318.